



XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.


Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	22 915	119,8 %
	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	20 907	116,1 %
	Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020-yilda)	3 771	92,1 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatları yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Oilaviy korxona



Unitar korxona



Xususiy korxona




Aksiyadorlik jamiyat




Boshqa korxonalar

*mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik*



*xususiy korxona
birlik*




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020-yil yanvar-sentabr oylarida, umumiyo sonidagi ulushi)



2020-yilning yanvar-sentabr oylarida 3 771 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 853 ta, oilaviy korxonalar – 1 113 ta, xususiy korxonalar – 661 ta, muassasalar – 42 ta va boshqalar – 102 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 3 650 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 276 taga yoki 53,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 331 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 062 taga yoki 46,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 113 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 25 taga yoki 2,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 10 007 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 906 taga yoki 23,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 091 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 502 taga yoki 19,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 853 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 122 taga yoki 7,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	34	49	66	124	162
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2	2	2	18	23
Sanoat	23	30	42	56	62
Qurilish	3	4	3	15	23
Savdo	3	8	10	23	31
Tashish va saqlash	0	1	2	4	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	3	3	4	9
Axborot va aloqa	0	0	0	1	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	0	0	1	1	5
Boshqa turlar	0	1	3	2	7

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	5 301	5 793	6 215	7 589	9 091
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	588	630	722	925	1 405
Sanoat	911	1 052	1 135	1 314	1 443
Qurilish	886	924	980	1 157	1 268
Savdo	1 626	1 766	1 896	2 392	2 816
Tashish va saqlash	378	416	463	514	571
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	170	190	182	222	244
Axborot va aloqa	78	92	80	91	108
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	63	81	98	130	170
Boshqa turlar	601	642	659	844	1 066

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	782	1 151	2 269	3 331
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	99	111	323	441
Sanoat	221	320	603	894
Qurilish	14	18	25	32
Savdo	154	240	563	974
Tashish va saqlash	5	8	12	19
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	179	320	561	681
Axborot va aloqa	12	11	21	21
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	12	20	39
Boshqa turlar	91	111	141	230


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni
(2020- yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)**



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining asosiy qismi Urganch shahri (4 629 ta), Urganch tumani (2 295 ta), Xiva shahri (1 790 ta), Xonqa tumani (1 660 ta) va Xiva tumani (1 625 ta) hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Xorazm viloyati	162	104	58
Urganch sh.	50	36	14
Xiva sh.	17	11	6
tumanlar:			
Bog'ot	8	7	1
Gurlan	5	4	1
Qo'shko'pir	6	4	2
Urganch	23	8	15
Hazorasp	2	1	1
Tuproqqal'a	6	2	4
Xonqa	7	4	3
Xiva	11	5	6
Shovot	10	8	2
Yangiariq	6	4	2
Yangibozor	11	10	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahrida 50 tani (umumiy miqdoridagi ulushi 30,8 %), Urganch tumanida 23 tani (14,2 %), Xiva shahrida 17 tani (10,5 %), Xiva tumanida 11 tani (6,8 %), Yangibozor tumanida 11 tani (6,8 %) hamda Shovot tumanida 10 tani (6,2 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Urganch shahri (22,8 %), Urganch tumani (10,7 %), Xiva shahri (8,7 %), Xiva tumani (8,2 %), Xonqa tumani (7,6 %), Qo'shko'pir tumani (6,8 %), Gurlan tumani (6,4 %), Yangiariq tumani (5,6 %), Bog'ot tumani (5,6 %), Shovot tumani (5,3 %), Hazorasp tumani (5,2 %), Yangibozor tumani (4,8 %) va Tuproqqal'a tumani (2,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Urganch shahri (15,7 %), Qo'shko'pir tumani (9,9 %), Urganch tumani (9,2 %), Yangibozor tumani (8,5 %), Gurlan tumani (8,0 %), Xiva shahri (7,9 %), Bog'ot tumani (7,3 %), Xonqa tumani (7,2 %), Xiva tumani (7,0 %), Yangiariq tumani (5,7 %), Shovot tumani (5,6 %), Hazorasp tumani (4,7 %) va Tuproqqal'a tumani (3,3 %) hissasiga tog'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2020- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Urganch shahri (21,8 %), Urganch tumani (10,3 %), Xiva shahri (9,3 %), Xiva tumani (8,7 %), Hazorasp tumani (7,7 %), Yangiariq tumani (7,4 %), Gurlan tumani (6,7 %), Xonqa tumani (6,2 %), Qo'shko'pir tumani (6,0 %), Bog'ot tumani (5,5 %), Shovot tumani (4,3 %), Tuproqqa'l'a tumani (3,4 %) va Yangibozor tumani (2,7 %) hissasiga tegishli.

Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqt-i-vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o’tish chora-tadbirlari to‘g’risida” gi 275-sон qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main header reads "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar lists various statistical publications like "E'on qilish taqvimi", "Metamalumotlar", and "Narx va indekslar". The central part of the page shows a search interface for "Statistik klassifikatsiyalar" (Statistical classifications), where users can enter a code and search. To the right, there's a column titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" (Useful Information) listing documents such as "Aholini ro'yhatga olish-2022" and "Harakatlar strategiyasi".

Tashqi foydalanuvchilar bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:62 224-65-11**